

DATA LOYIHA YARATISHDA SUN'YI INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI

Shoxsanam Xidirova

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

E-mail: shoxsanamxidir@gmail.ru

Тел: 93 551 8660

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20641980>

Annotatsiya. O'zbek segmentida data loyihalar sekin-asta rivojlanib bormoqda. Mustaqil janr sifatida o'rnini topishi uchun bir qancha omillar qatorida sun'iy intellekt ham ta'sir etishi mumkin. Mazkur materialda data jurnalistikaga sun'iy intellekt texnologiyasi transformatsiyasi masalasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: data loyiha, tadqiqot, statistika, algoritm, auditoriya, vizualizatsiya...

Ko'plab sohalar qatorida jurnalistikada ham sun'iy intellekt texnologiyasi transformatsiyasi kuzatilmoqda. Yirik va nufuzli nashrlardan biri “The Guardian” gazetasi jamoasi allaqachon sun'iy intellekt vositasidan amaliy foydalanishni boshlab yuborgani ma'lum. 2015–2016-yillarda yaratilgan yirik data jurnalistik loyihasi “The Counted” (Hisoblangan)¹ interaktiv misoli haqida to'xtalish lozim. Bu loyihada avtomatik hisoblash algoritmidan foydalangan. AQShda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan sodir etilgan noqonuniy o'lim holatlarini muntazam ravishda aniqlash, hisobga olish va tahlil qilishga qaratilgan data loyiha edi. Mazkur materialning asosiy mohiyati rasmiy statistika yetarli bo'lmagan sharoitda mustaqil data jurnalistikani qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ya'ni, AQShda politsiya tomonidan sodir etilgan o'limlar bo'yicha yagona, to'liq va ishonchli davlat ma'lumotlari bazasi mavjud emas edi. “The Counted” (Hisoblangan) mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida ochiq manbalar, mahalliy yangiliklar, politsiya hisobotlari hamda jamoatchilikdan kelib tushgan ma'lumotlarni yagona data platformaga jamladi. “The Counted” (Hisoblangan) loyihasida sun'iy intellekt va algoritmik usullar yordamchi texnologiya sifatida qo'llanildi. Xususan:

- mahalliy va milliy OAVlarda chop etilgan minglab yangilik matnlari avtomatik tarzda skaner qilindi;
- matn ichidan politsiya ishtirokidagi zo'ravonlik va o'lim holatlariga oid kalit so'zlar aniqlab olindi;
- takrorlanuvchi va noto'g'ri ma'lumotlar filtrdan o'tkazildi. Shuningdek, algoritmik tahlil yordamida ma'lumotlar toifalarga ajratildi: voqea joyi, sana, jabrlanuvchining yoshi, jinsi, irqi, qurol mavjudligi va holat tafsilotlari. Bu esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Asosiysi, jamoatchilik ishtirokida ma'lumotlar verifikatsiya qilindi. Shu tariqa statistik tahlil va vizualizatsiyaga asoslangan ochiq va interaktiv ma'lumotlar bazasi yaratildi. Mazkur yondashuv data jurnalistikaning shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirdi hamda auditoriyaga ma'lumotlar bilan mustaqil tanishish imkonini berdi. “The Counted” (Hisoblangan) loyihasi nafaqat jurnalistik material, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega loyiha edi. Natijada, AQShda politsiya faoliyati, irqiy tengsizlik va huquqni muhofaza qilish organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, loyiha rasmiy idoralarni ushbu sohada statistik hisobotlarni yaxshilash zaruratiga e'tibor qaratishga majbur qildi.

“The Guardian” gazetasining “The Counted” data jurnalistika va sun'iy intellektning uyg'unlashuvi orqali ijtimoiy muammolarni fosh etish va jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlar

¹ The Guardian rasmiy sayti. – URL: <https://www.theguardian.com/us-news/ng-interactive/2015/jun/01/the-counted-police-killings-us-database>. (murojaat sanasi: 2015-yil 1-iyun)

yaratish mumkinligini yaqqol namoyish etdi. Qolaversa, “The New York Times”ning COVID-19 mavzusidagi izchil data loyihalari, “ProPublica”ning “Machine Bias” kabi data loyihalarida sun’iy intellekt data jurnalistikaning ajralmas qismi sifatida qo’llanilib, u nafaqat ma’lumotlarni avtomatlashtirish, balki ijtimoiy muammolarni aniqlash va auditoriyaga chuqur tahliliy materiallar taqdim etishda muhim vosita bo’lib xizmat qilmoqda. Afsuski, O’zbekiston onlayn nashrlarida esa mazkur amaliyot hali keng joriy etilmagan.

Oxirgi uch yillik materillarni tahlil etganimizda faqatgina “Anhor.uz” nashri data jurnalistlari sun’iy intellektdan qisman foydalanib kelayotganini aniqladim. 2023-2025-yillar davomida “Anhor.uz”da jami 112 ta data material e’lon qilingan. Ammo shundan 18 tasidagina sun’iy intellekt yordamidan foydalanilgan. “Spot.uz”da esa bu yillar davomida 78 ta data material yaratilgan. Shundan birortasida ham sun’iy intellektdan foydalanilmagani ma’lum bo’ldi.

“Xabar.uz” internet nashrida esa oxirgi yillarda data material berishda sustkashlik kuzatilmoqda. Chunki saytning “Infografika” bo’limi oxirgi marta 2024-yil fevral oyida yangilanganini kuzatish mumkin. Ikki yilda beri data material berilmaydi. O’z-o’zidan ma’lumki, sun’iy intellekt texnologiyasidan ham foydalanilmaydi. Buni nashr muharriri Sobit Ahadov ham tasdiqladi: “Tahririyatda data jurnalistika bilan shug’ullanadigan alohida bo’lim yo’q. Sezgan bo’lsangiz, oxirgi paytlarda data materiallar e’lon qilishimiz ham sustlashgan. Chunki data material oddiy xabarga qaraganda ko’p vaqtni oladi. Sun’iy intellekt vositasidan biror marta ham foydalanganimiz yo’q”.

Shuning uchun tahlil etilgan internet nashrlaridagi data materiallarning sun’iy intellektdan foydalanishdagi ayni holatini quyidagicha jadval ko’rinishiga keltirildi:

Sayt	Data material mavjud yoki yo’q	SI elementlari	Izoh
“Gazeta.uz”	mavjud	aniqlanmadi	Data materiallar asosan tashkilotlar tomonidan yaratilgan statistikadan foydalaniladi. Shuning uchun sun’iy intellekt vositasidan deyarli foydalanilmaydi
“Spot.uz”	mavjud	aniqlanmadi	Data materiallar davriyligi tarqoq. Soni kam.
“Anhor.uz”	mavjud	qisman aniqlandi	Data jurnalistika yo’nalishi rivojlangan. Sun’iy intellekt vositasidan ba’zan foydalaniladi. Ma’lumotlar vizualizatsiya qilinadi. Muntazamlik bor.
“Xabar.uz”	mavjud bo’lgan, lekin oxirgi ikki yilda sustlashgan	aniqlanmadi	Data materiallar kam e’lon qilinadi. Chunki muharrirlarning vaqti to’g’ri taqsimlanmagan.
“Podrobno.uz” (batafsil.uz)	mavjud	aniqlanmadi	Data materiallar muntazam e’lon qilinadi. Lekin kamdan-kam vizualizatsiya qilinadi. Sun’iy intellekt vositasidan foydalanilmaydi.

Bu jadvaldan ko’rinadiki, “Gazeta.uz”, “Spot.uz”, “Xabar.uz”, “Podrobno.uz” (batafsil.uz) kabi nashrlarda faoliyat yurituvchi o’zbekistonlik data jurnalistlar sun’iy intellekt vositasidan foydalanmasligi ma’lum bo’lmoqda. Sababi esa tahririyatlarda texnik savodxonlikka ega, sun’iy intellekt bilan ishlay oladigan data jurnalistlar kam. Data jurnalistika tahririyatda alohida bo’lim

sifatida tashkil etilmagan. Bu esa nashrning moddiy imkoniyati bilan bog‘liq masala bo‘lishi mumkin.

“Xabar.uz” axborot portali muharriri Sobit Ahadov 2022-yilgacha data loyihalari bilan ham faol shug‘ullanib kelgan. Ammo hozir tahririyatda data jurnalistika kam e‘lon qilinadi. Tadqiqotimiz davomida nima uchun yangi va zamonaviy data loyihalar yaratish ustida ishlar to‘xtab qolganiga qiziqqanimizda Sobit Ahadov shunday dedi: “To‘g‘risini aytsam, ilgari ko‘p infografikalarni o‘z shaxsiy qiziqishim sababli tayyorlaganman, hozir yangiliklar bo‘limidaman. Muammo — vaqt masalasi. Balki sun‘iy intellektdan foydalanish bunga yechimdir, ammo hali sinab ko‘rmadim”. Xuddi o‘xshash fikrni “Gazeta.uz” muharriri Davlat Umarov ham aytib o‘tdi: “Sun‘iy intellektdan data materiallarimiz uchun foydalanilganini kuzatmaganman, aslida bizda data materiallar juda kam vizualizatsiya qilinadi, asosiy qismi tayyor statistika ko‘rinishida tashkilotlardan olingani uchun, hozirgacha sun‘iy intellektni sinab ko‘rmadik. Lekin jadval yoki boshqa ko‘rinishda chiroyliroq vizualizatsiya qilish uchun asosan bazaviy platformalardan ham foydalaniladi”.

Shuningdek, “Spot.uz” va “Podrobno.uz” jurnalistlari faoliyatida ham hozirgacha sun‘iy intellektni qo‘llab ko‘rishmagani ma‘lum bo‘ldi. Demak, internet nashrlari tahririyatlarining hozirgi holatini kuzatsak, data jurnalistik materiallar soni juda kamligi seziladi. Ko‘pchiligida davlat tashkilotlaridan olingan rasmiy data materiallarni sharhlab berish bilan cheklanish holatlari uchraydi. Bu esa plyuralizmga emas, bir yoqlama qarashga olib keladi.

Odatda, “Anhor.uz”, “Gazeta.uz”, “Spot.uz”, “Podrobno.uz”, “Xabar.uz” kabi saytlarda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar asosan Canva, Google sheets, Datawrapper, Flourish, Tableau kabi dasturlardan foydalanadi. Exsel dasturlarida hisoblangan ma‘lumotlarni professional dizayn qilish uchun esa Inkscape dasturidan foydalanilishi ham kuzatildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Пильгун М.А. (2016). Журналистика данных – будущее медиа // ICTNEWS. – No7. С. 46.
2. Чернецкий П.П. Журналистика данных как фактор объективности в сетевых сми. Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2015. № 6 (48): в 2-х ч. Ч. I. С. 189-192. ISSN 1997-2911.
3. [Simon Rogers Stiv Doig Anjelika Peralta Ramos Nikolas Kayser-Bril Lulu Pinney](#). Presenting Data to the Public. 2017. Printed in USA.
4. The Data Journalism Handbook. Published in 2018 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France.
5. Kate Wright, Rodrigo Zamith & Saba Bebawi. –“Data Journalism beyond Majority World Countries: Challenges and Opportunities”.
6. Internet nashrlar:
7. <https://datajournalism.com/read/handbook/one>
8. <https://www.oreilly.com/library/view/the-data-journalism/9781449330057/ch01.html>